

# Tashqarida +40 daraja, aviachiptalarga esa -20% chegirma!

2023 12 Iyul

## **“Yorqin Payshanba” aksiyasida ishtirok etib, Uzbekistan Airways aviakompaniyasidan 20% chegirma bilan aviachiptalarni xarid qiling**

Shu hafta, 2023-yil 13-iyul kuni “Yorqin payshanba” aksiyasi doirasida Uzbekistan Airways Toshkentdan Boku, Grozniy, Pekin, Urumchi va ortga qaytuvchi barcha reyslar tariflariga 20% chegirma e’lon qiladi! Aksiya e’lon qilingan jadval tugaguniga qadar yuqorida ko’rsatilgan barcha reyslar uchun amal qiladi.

### **Aksiyasining batafsil shartlari:**

1. Aksiya muddati 2023-yil 13-iyul soat 00:00 dan 23:59 gacha;
2. Taqdim etiladigan chegirma miqdori:
  - kattalar uchun tarifdan – 20%;
  - 2 yoshgacha va 2 yoshdan 12 yoshgacha bo’lgan salonda joy egallovchi bolalar uchun – bolalar tarifiga mos ravishda – 20%;
  - chegirma salonda joy egallamaydigan va 2 yoshgacha bo’lgan bolalar uchun amal qilmaydi;
3. Aviachipta qaytarilganda/qayta bronlashtirilganda/qayta rasmiylashtirilganda tarifga taqdim etilgan chegirma aviachiptani qaytarish/qayta bronlashtirish/NO-SHOW uchun undiriladigan yig’imlarga nisbatan qo’llanilmaydi. Bolalar uchun belgilangan tartibda (25% chegirma bilan) undiriladi;
4. Ilgari sotib olingan aviachiptalar 13.07.2023da qayta rasmiylashtirilsa yoki qayta bron qilinsa, tarifga chegirma qo’llanilmaydi;
5. Chegirma bilan qisman foydalanilgan aviachiptalar qayta rasmiylashtirilgan/qayta bron qilingan taqdirda, qayta hisob-kitob aviachipta chiqarilgan sanada (ya’ni chegirma qo’llanilgan holda) amalga oshiriladi;

6. Aviatashuv muddati cheklanmagan (aviatashuvning amal qilish muddati qo'llanilgan tarif qoidalari bilan belgilanadi, aviachiptalarni e'lon qilingan berilgan jadval asosida rasmiylashtirishga ruxsat beriladi);
7. Chegirmalarni birlashtirish taqiqlanadi;
8. Chegirma e'lon qilingan barcha individual ekonom va biznes-klass tariflari uchun faqat Toshkentdan Boku, Grozniy, Pekin, Urumchi va orqaga qaytuvchi to'g'ridan-to'g'ri yo'nalishlar uchun taqdim etiladi. CodeShare aviaqatnovlarida va Tijorat shartnomalari (SPA) ostida e'lon qilingan tariflar uchun amal qilmaydi.

“Yorqin payshanba” aksiyasi doirasida aviachiptalarni aviakompaniyaning rasmiy [www.uzairways.com](http://www.uzairways.com) sayti, UzAirways ilovasi orqali, shuningdek, Uzbekistan Airways Sales filialida yoki aviakompaniya agentlaridan xarid qilish mumkin.